
BUGUN TOSHLOQ TUMANI HOKIMI, 1-SEKTOR RAHBARI A.DJURABAYEV YOSHLAR MUAMMOLARINI O'RGANISH MAQSADIDA UCH OLISH MFYDAGI YOSHLAR BILAN UCHRASHDI

Uchrashuv davomida 10 nafar yoshlar muammo va takliflar bilan murojaat qildilar. Hususan, ishga joylashish, uy-joy olish, tadbirkor uchun yer ajratish, tadbirkorlik uchun kredit olish, tibbiy va moddiy yordam kabi masalalarda Uch olish MFY yoshlari tuman hokimiga to'g'ridan - to'g'ri murojaat qildilar.

Murojaatlarni aksariyati shu yerning o'zida hal etilgan bo'lsa, muddat talab etuvchi savol va takliflar tegishli mutasaddilarga biriktirilib, ijrosi nazoratga olindi.

Uchrashuvda tuman prokurori A.Xudoyberganov ham ishtirok etib, yoshlar tomonidan bildirilgan taklif va murojaatlarga huquqiy maslahatlar berib o'tdi.

Toshloq tumani hokimligi axborot xizmati.

2022-07-27 18:49:19